





**NAVOIY VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024- YIL YANVAR-IYUN
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



**Tel.: 79-223-33-29
www.navstat.uz**

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2 737 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 618 tasi (mavjud korxonalar umumiylar sonining 22,6 % ni) Navoiy shahriga, 444 tasi (16,2 %) Karmana tumaniga, 287 tasi (10,5 %) Xatirchi tumaniga, 276 tasi (10,1 %) Qiziltepa tumaniga va 232 tasi (8,5 %) G'ozg'on shahriga to'g'ri kelmoqda.






Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 63 433,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,4 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



2022-y. 2023-y. 2024-y.


Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (330 920,6 ming so‘m), Karmana tumani (40 740,8 ming so‘m), Konimex tumani (11 567,2 ming so‘m), G‘ozg‘on shahrida (9 594,5 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.



Navoiy viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

58,7 mln. so‘m




ming. so‘mda — o‘sish sur’ati, % da




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 51 249,1 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,8 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Navoiy shahri (84,9 %), Karmana tumani (8,9 %), Xatirchi tumani (1,6 %), Qiziltepa tumani (1,2 %) hamda Navbahor (1,0 %) tumani hissasiga tog'ri keldi.



Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, G'ozg'on shahrida (110,7 %), Uchquduq tumanida (109,7 %), Karmana tumanida (109,3 %) hamda Qiziltepa (108,7 %) tumanlarida kuzatildi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8 020,5 mlrd so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 12,6 % ga to‘g‘ri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan – bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoiy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51 249,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,8 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,0 % (10,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 82,9 % (82,3 %) va quiyi texnologiyalisi – 7,7 % (7,4 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

2024- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 4 588,7 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 120,0 % ga o'sgan), 347,3 ming tonna Suvsiz ammiak (107,5 %), 1 761,4 ming dona mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolkalar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar (129,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna.	39,4	40,8	1,4
Argon, ming m ³ .	86,9	601,1	514,2
Fosfinatlar, fosfonatlar, fosfatlar va polifosfatlar, ming tonna.	262,4	283,8	21,4
Azot ,ming m ³ .	35,5	42,4	6,9
Kislород , ming m ³ .	55,2	356,7	301,5
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	3 822,9	4 588,7	765,8
Natriy sianidlari va sianidoksidlari, ming tonna.	24,1	25,4	1,3
Suvsiz ammiak, ming tonna.	323,0	347,3	24,3
Uglerod dioksidi, tonna.	4 733,7	5 189,8	456,1
Metanal (formaldegid), tonna.	343,0	688,0	345,0
Superfosfatlar, ming tonna P2O ₅ .	0,7	0,9	0,2

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Argon ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-iyun oylarida)

Argon – rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lalanadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlataladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.

Viloyatimizda 2024- yil yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 601,1 ming m³ argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 m. ga ko'paydi.



o'sish sur'ati, % da*




Uglerod dioksidi ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-iyun oylarida)

Uglerod dioksidi – gazsimon uglerod dioksid suyuqligidan tashkil topgan (karbonat angidrid, karbon dioksid) bo'lib, ammiak chiqindi gazlar, shuningdek, boshqa yonishmahsulotlar (past harorat suyuqlik, yuqori bosim suyuqlik va gaz) asosida olinadi.

Viloyatimizda 2024- yilning yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 5,2 ming tonna uglerod dioksidi ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ni tashkil etgan.



o'sish sur'ati, % da*




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kislород ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-iyun oylarida)

Kislород – rangsiz, hidsiz va ta'msiz gaz. Kislород eng faol (ftordan keyin) metallmas element, yengil inert gazlardan boshqa hamma elementlar bilan kimyoviy birikmalar hosil qiladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida jami 356,7 ming m³ kislород ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 m ga ko'paydi.



Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-iyun oylarida)

Plastmassa quvurlar – asosan, suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo'llanadi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 4 588,7 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,0 % ga ko'paygan.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 79,7 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 14,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 40 865,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 93,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 294,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 700,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,0 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 101,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 586,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to‘qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to‘qimachilik gazlamalarini va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to‘qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 16,7 % ga ko‘payib, ishlab chiqarish hajmi 1 156,0 mld. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to‘qimachilik gazlamalari, to‘qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo‘yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 12,1 % ga ko‘payib va ishlab chiqarish hajmi 857,5 mld. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 130,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,5 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 107,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 101,0 % ni hamda elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 119,7 % ni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	5 277,9	5 694,7	416,8
Issiqlik energiyasi, ming. gkal	2 531,6	2 556,8	25,2
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	876,9	1 049,2	172,3

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33,2 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 104,9 % ni hamda oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 107,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	25 269,0	27 118,7	1 849,7
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	74 191,4	73 414,1	-777,3
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	24 157,2	25 338,6	1 181,4

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI QISMLAR VA MATERIALLAR ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING AMALGA OSHIRILISHI (2024- yilning yanvar-iyun oylarida)

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilishida mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 373 ta loyiha bo'yicha 3 281,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 23,6 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga, 953 ta yangi ish o'rnlari yaratildi.

